

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY MATNNING LINGVISTIK  
TADQIQI

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o‘g‘li

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya  
fakulteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida badiy matn va uning ta’rifi. Shuningdek, tilshunosligimizda bugungi kungacha badiy matn bo‘yicha qilingan ishlar va ularning tasnifi, tadqiq etilgan asarlardagi turli xil qarashlar va lingvopoetik tahlil tamoyillari, haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvopoetika, matn, badiy matn, lisoniy tahlil, troplar, uslubiy figuralar.*

O‘zbek tilshunosligida badiy matn va uning birliklari , matnni bog‘lovchi vositalar haqida o‘zbek tilshunos olimlari turli fikrlarni aytib o‘tishadi. Avvalo “Matn” atamasi va uning ma’nosi haqida to‘xtalib o‘tamiz. “Matn” atamasi haqida ilmiy adabiyotlarda uning ma’nosi haqida turlicha talqin etiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matn so‘zini arab tilidan o‘zlashganligi haqida ma’lumot berilgan. “Matn- yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi , tekst / 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasmi , chizma va izohlarsiz asosiy qismi” <sup>7</sup>. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matn so‘zini aynan tekst so‘zi anglatgan ma’noga ishora qilinadi. Avvalo shuni alohida ta’kidlash lozimki, insonlar o‘rtasidagi muloqot matn vositasida amalga oshishini hisobga olsak. Matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash haqidagi qoidalar nazariyasiga zid bo‘lishi turgan gap. O‘z navbatida matn ham nutqning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Har bir matn murakkab tuzilishi va mazmuniy mundarijaga ega bo‘lib, u yozma va og‘zaki ijod namunasi sanaladi.

Har bir matn o‘zida ma’lum bir ma’no-mazmunni tashiydi hamda u o‘zining tashiyotgan ma’no-mazmuniga ko‘ra axborotlarni tur xil shaklda yetkazadi. Ana shu xususiyatiga ko‘ra matnlar *badiy matn, ilmiy matn, publtsistik matn hamda rasmiy matn* shaklida bo‘ladi.

Badiy matnda avvalo hissiylik va tasviriylik kuchli bo‘ladi. Hissiylik va tasviriylik badiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Chunki badiy matnda yozuvchi va ijodkorlarning tabiiy va ijtimoiy borliqqa nisbatan

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати . - Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5 жилдлик, 2-жилд, -М.557



erkin munosabatda bo‘lib, mohiyatni ochib berishda ijodkor turli tasvir vositalari , turli lug‘aviy birliklar, badiiy o‘xshatishlar, badiiy obrazlar va tildagi so‘zlarning nozik qirralaridan unumli foydalangan holda keng ommaga taqdim etadi.

Badiiy matn lirik, epik va dramatik turlarga kiruvchi matnlarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida tilshunos olimlar tomonidan badiiy matnni nazariy muammolarini o‘rganish o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab shug‘ullanila boshlandi. B.O‘rinov, R.Qo‘ng‘urov va J.Lapasovlarning “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi alohida ahamiyatga egadir.

Tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To‘xsanovning “Mikromatn va o‘zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar” nomli nomzodlik ishi mavjud.

Dastlabki o‘quv qo‘llanma sifatida A.Mamajonov “Tekst lingvistikasi” nomi bilan 1989-yilda nashr qildirgan.

Shu bilan birga J.Lapasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” (Toshkent, “O‘qituvchi”,1995 ) nomli o‘quv qo‘llanmasi ham badiiy matn va uni tahlili mavzusidagi muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Olimning ushbu o‘quv qo‘llanmasida badiiy matn va uning lisoniy tahlili,badiiy matn maqomi, badiiy matnni tashkil etuvchi birliklar, badiiy matn va uning turlari, til ifoda vositalarining matn tuzilishidagi ahamiyati, badiiy nutqning turlari ( *ichki va tashqi, og‘zaki va yozma, dialogik va manologik* turlarga bo‘linishi ), badiiy matnni hosil qiluvchi tasviriy vositalar (leksik vositalar; uslubiy vositalar , ya’ni ularning ikki xil shakli *troplar (ko‘chim) va figuralar*) ; badiiy matnni lisoniy tahlil qilish davomida lug‘atlar bilan ishlash va bu lug‘atlarning tahlil davomida tutgan o‘rni, shu bilan birga badiiy asar lug‘atini tuzish namunasi ham berilgan. J.Lapasov ushbu o‘quv qo‘llanmasida she’riy asarlar tahlili, dramatik asarlar tahlili, nasriy asarlar tahliliga namunalar berilgan. Har bir janrga oid berilgan namunalarda badiiy matnning lug‘at tarkibi, frazeologiyasi, grammatikasi, uning stilistikasi kabi kategoriyalar tahlilga tortilgan.

Shuningdek, badiiy matnning tadqiqi bilan bog‘liq yana M.Yo‘ldoshev bir nechta o‘quv qo‘llanmalarni nashr qildirdi: “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari”(Toshkent, 2007), “Badiiy matn lingvopoetikasi” (Toshkent.: “Fan”, 2008), “Badiiy matnning lisoniy tahlili” (Toshkent., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashryoti, 2010).

M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” nomli metodik qo‘llanmada matn va uning ta’rifi, matnning turli olimlar tomonidan berilgan izohlari va olimning qarashlari, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi



vositalar, badiiy matnning fono-grafik xususiyatlari, badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnning morfologik, sintaktik xususiyatlari, ko‘chimlar, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari va lisoniy tiplari haqidagi qator masalalar tahlil etilgan.

Shu bilan birgalikda M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” ( Toshkent., 2007) nomli o‘quv qo‘llanmasini nashr ettirdi. M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” nomli o‘quv qo‘llamasida matn va uning tiplari, badiiy nutq uslubi va uning ko‘rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik , leksik-grammatik xususiyatlari hamda badiiy matnning morfologik va sintaktik xususiyatlari va badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari haqida so‘z yuritiladi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada badiiy asarlardan olingan misollar asosida badiiy asarni lingvopoetik jihatdan qanday tahlil qilish kerakligini o‘rgatadi.

I.Qo‘chqortoev va H.Nizomxonovlarning “Badiiy asarning tekstual variantlari – lingvostilistik tadqiqot ob‘ektlaridan biri” nomli ilmiy maqolasi alohida o‘rin tutadi<sup>8</sup>.

S.Meliev she‘riy kontekstda so‘zning badiiy funksiyasi tahliliga oid nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan<sup>9</sup>.

M.To‘xsanov “Mikromatn va o‘zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar (so‘z almashtirish va takror)” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi<sup>10</sup>.

H.Usmonov esa o‘zbek badiiy matnlarida so‘zlashuv nutqi xususiyatlarini maxsus tadqiq etdi<sup>11</sup>.

Qolaversa, S.Karimovning “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” (Samarqand., 1994) nomli o‘quv qo‘llanmasida badiiy tasvir vositalarining ko‘proq uslubiy xoslanishi, xususan, badiiy uslub doirasida namoyon bo‘lishi xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Prof. S.Karimov badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalarini ikki guruhga bo‘lib kitobxonlarga taqdim etadi. **Troplar** (*o‘xshatish, metafora, epetit, metonimiya, sinekdoxa, prefraz, ironiya, antifraza, sarkazm, mubolag‘a va kichraytirish, simvol, jonlantirish*) va **uslubiy figuralar** (*antetiza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bog‘lovchisizlik), assonans, gradatsiya ( klimaks, antiklimaks),*

<sup>8</sup> Қўчқортоев И., НизомхоновҲ. Бадий асарнинг текстуал вариантлари – лингвостил-стик тадқиқот объектларидан бири//Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 6. Б. 15-19.

<sup>9</sup> Мелиев С. Художественная функция слова в стихотворном контексте (на материале современной узбекской поэзии). АҚД. – Ташкент, 1985. – 19 с.

<sup>10</sup> Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи (замена и повтор). АҚД. – Ташкент, 1987. – 17 с.

<sup>11</sup> Тўхсанов М. Микротекст ва унинг коммуникатив яхлитлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. № 5. – Б. 66-67.



*diateza, tovushga taqlid, sanash, ritorik murojat, ustunlar tengligi, tenglik, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, elepsis, inversiya*)<sup>12</sup> va boshqa shu kabi turlari bo‘lganliklarini va ularning ko‘plari hozirgi zamon poeziyasida, jumladan, o‘zbek poeziyasida yashab kelayotganligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tahlilning rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo‘chqortoev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yo‘ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn va uning tadqiqi yuqorida nomlari sanab o‘tilgan tilshunos olimlar tomonidan atroflicha izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar davomida tilshunosligimizda lingvopoetik tahlil deb nomlangan bir tarmoqning rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Umuman olganda, badiiy matndagi ma’no nozikliklari va ularni har tomonlama tahlilga tortishda yuqorida nomlari keltirilgan adabiyotlar muhim sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати . - Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5 жилдлик, 2-жилд, -М.557
2. Қўчқортоев И., Низомхонов Х. Бадий асарнинг текстуал вариантлари – лингвостилистик тадқиқот объектларидан бири//Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 6. Б. 15-19.
3. Мелиев С. Художественная функция слова в стихотворном контексте (на материале современной узбекской поэзии). АҚД. – Ташкент, 1985. – 19 с.
4. Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи (замена и повтор). АҚД. – Ташкент, 1987. – 17 с.
5. Тўхсанов М. Микротекст ва унинг коммуникатив яхлитлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. № 5. – Б. 66-67.
6. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув кўлланма. Самарканд . 1994. Б. 7-45.
7. М.Ҳо‘лдошевнинг “Бадий матн ва унинг лингвopoetik тahlili asoslari” - Toshkent., 2007.

<sup>12</sup> Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув кўлланма. Самарканд . 1994. Б. 7-45.

